

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAHSUS TA'LIM VAZIRLIGI

AL – XORAZMIY NOMLI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI



TARIX FAKULTETI
304-MIG' GURUHI TALABASI
QILICHEV HURMATNING
“G'OYALAR FALSAFASI” FANIDAN YOZGAN

KURS ISHI

MAVZU: MAFKURAVIY TAXDIDLARNING TURLARI VA
NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI.

QABUL QILDI:

F.F.D. M.XAJIEVA

Urganch-2012

REJA:

I KIRISH

II ASOSIY QISM:

1. VAYRONKOR G'OYA VA MAFKURALARNING JAMIYAT HAYOTIGA SALBIY TA'SIRI.

2. «FIKRGGA QARSHI FIKR, G'OYAGA QARSHI G'OYA, JAHOLATGA QARSHI MA'RIFAT» BILAN KURASHISH TAMOYILLARI.

3. MAFKURAVIY XAVFSIZLIKKA INTILISH - IJTIMOYIY-SIYOSIY BARQARORLIK OMILI VA UNING XORIJ TAJRIBASI.

4. IJTIMOYIY-SIYOSIY BARQARORLIKNING ASOSIY TAMOYILLARI.

III XULOSA

IV FOYDALANGAN ADBIYOTLAR.

KIRISH

Insoniyat tarixida XX asr misli ko'rilmagan tarixiy voqealarga nihoyatda boy bo'lganligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, XX asrning so'nggi o'n yilligi insoniyat tarixida yangi davrni boshlab berdi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Totalitarizm, ma'muriy buyruqbozlik va zo'ravonlik g'oyalariga tayangan sotsializm barbod bo'ldi.

Millatchilik, irqchilik, fashizm g'oyalarining davomi bo'lgan kommunizm mafkurasi inqirozga uchrab, mustamlakachilikning so'nggi qo'rg'onlari quladi. Bu o'z navbatida yangi - g'oyat murakkab va qaltis bir vaziyatni yuzaga keltirdi. Dunyo xaritasida o'zlarining mustaqil taraqqiyot yo'lini belgilab olgan o'nlab suveren davlatlarning paydo bo'lishi, ayni paytda sotsialistik g'oyalar hukmron bo'lib kelgan hududni mafkuraviy jihatdan bo'lib olishga intilishlar kuchaydi. Bu vaziyat buyuk davlatchilik shovinizmi, diniy ekstremizm, tajovuzkor millatchilik kabi mafkuraviy tahdidlarda namoyon bo'lmoqda.

Bunday vaziyatda faqatgina kuchli, xalq irodasini o'zida aks ettirgan g'oyalargina mamlakatni, jamiyatni yot g'oyalar ta'siridan, mafkuraviy tazyiqlardan muhofaza qila oladi.

Prezidentimiz I.Karimov murakkab bu davrning asosiy belgi va xususiyatlarini tahlil qilib, «O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari» asarida quyidagi xulosaga keladi:

Birinchi. Davlatlararo munosabatlar tizimidagi muvozanat buzildi. Jahonda siyosiy-iqtisodiy bo'linish ro'y berdi. Kuchlar markazi ilgari ikki joyda bo'lsa, endilikda bunday ahvol va vaziyat o'zgardi.

Ikkinchi. Jahonda mulkiy tengsizlik - sanoati rivojlangan mamlakatlar bilan rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi tafovvut va ziddiyatlar kuchayyapti.

Uchinchi. Dunyoda insonning biologik tur sifatida yashashiga bevosita xavf-xatar mavjud. Ya'ni, yalpi yadro urushi xavfi ancha kamaygan bo'lsa ham, ekologik tanglik xavfi, biogenetik buzilishlar xavfi hamon tahlikali holatda saqlanib qolmoqda.

To'rtinchi. Jahon miqyosidagi umumiy taraqqiyot, odamlar dunyoqarashining o'zgarishi, kommunikatsiyalar yuksalishi, xalqaro munosabatlarning rivojlanishi va uning odamzod hayotiga ta'siri davlatlar va xalqlar o'rtasida o'zaro birlashishga intilishni kuchaytirmoqda. Ayni vaqtda milliy xususiyatlar va an'analarni, siyosiy va ma'naviy merosni saqlab qolish tamoyillari ham yaqqol sezilmoqda.

O'tmish tarixga nazar solsak, mavjud chegaralarni o'zgartirish, muayyan hududlarni bosib olish uchun son-sanoqsiz urushlar bo'lganligini va bu urushlar jarayonida qurol-yarog'lar ham muntazam takomillashib borganligi guvohi bo'lamiz. Mazkur urushlar XX asrgacha ko'proq bir davlat ichida, ikki davlat o'rtasida yoki nari borganda bir mintaqa doirasida bo'lishi mumkin edi. To'g'ri, aytaylik, Aleksandr Makedonskiy, CHingizxonning ulkan davlat barpo etish yoki o'rta asrlardan boshlab evropalik istilochilarning boshqa qit'alarni zabt etish uchun olib borgan urushlari ko'lami jihatidan bir-biridan ajralib turadi. Ammo bunday holatlar istisno hodisalar sifatida baholanmog'i kerakka o'xshaydi. XX asrda ro'y bergan ikkita jahon urushida o'nlab davlatlar, bir necha qit'a mamlakatlari ishtirok etganligini eslasak, bunday xulosa muayyan darajada o'rinli ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Xullas, urush qurollari takomillashib boraveradi. Bugungi kunda insoniyat qo'lida mavjud bo'lgan qurol-yarog'lar butun Er sayyorasini yakson qilishga etadi. Hozirgi zamondagi eng katta xavf-insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Prezidentimiz ta'kidlab o'tganidek, endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo'layotgan kurashlar ko'p narsani hal qiladi.

Hozirgi davrda g'oyaviy-mafkuraviy kurashlar er yuzini, barcha mintaqa va mamlakatlarni qamrab olmoqda. Bugun bu jarayonlardan biror kishi yoki mamlakat chetda qolmayapti. Ayniqsa, diniy ekstremizm, fundamentalizm yoki prozelitizm va boshqa egotsentrizmga asoslangan axloqsizlik g'oyalarini kishilar ongiga singdirishdan iborat mafkuraviy tajovuzlar mintaqaviy va umumbashariy muammo darajasiga chiqib, unga qarshi kurashning xalqaro institutsional tizimini shakllantirish taqozo qilinmoqda. Bunday sharoitda, jamiyatni tashkil qilgan sinflar, ijtimoiy qatlamlarning manfaat va maqsadlarini uyg'unlashtiruvchi imkoniyatlarni global miqyosda aniqlash zaruriyati vujudga keladi.

Mafkuraviy taxdid – ijtimoiy –siyosiy xarakter okim siyosiy kuch uz maanfatini ifodalovchi mafkurasini kurkituv zurluk yoli bilan boshqalarga tiqishtirish mafkuraviy taxdid jamiyat davlat yoki xalq millat yoki elat takdiriga xavf solib turgan fojeali oqibatlarga olib kelishi mumkin bulgan mafkuraviy xavf-xatarlar majmuasi uzbekistonda insonparvar demokratik jamiyat qurilayotgan xozrgi sharoitda fuqarolar ongi va faolyatiga siyosiy ekstremizim diniy va fundamentalizm etnik milatlararo zidiyatlar korruptsiya va jinoyatchilik maxalliychilik va urug-aymokchilik ekologik muammolar Mafkuraviy taxdid shakllanishida namoyon bulayoti ayniqsa o'rta asr xalifaligini qayta o'rnatish g'oyasi xamda xalkaro terrorchilik va diniy ekstremizim markazlari orqali moddiy –g'oyaviy ta'minlanayotgan aqidaparastlar mafkurasini bugun mintaqamizdagi tinchlik va barqarorlik uchun kata xavf bulib turibdi.

Mustaqillikni mustahkamlashning muhim shartlaridan biri bu g'oyaviy tarbiyani kuchaytirishdan iborat. Bu borada kishilarimizda yot va zararli g'oyalarga qarshi kurashish uchun mafkuraviy immunitetni shakllantirish zarur. Albatta, mafkuraviy immunitetni shakllantirish kishilar ongida bir xil g'oyani zo'r berib tiqishtirish emas, balki odamlarda oq-qorani ajratish, zararli g'oyalarga qarshi hushyor va ogoh bo'lish xususiyatlarini tarbiyalash demakdir. 1999 yil 16 fevral, 2004 yil martidagi Buxoro va Toshkent, shahrida 2005 yil 13 mayda Andijon shaharlarida sodir etilgan terrorchilik voqealaridan to'g'ri xulosa chiqarish kerak. Har bir davlat, jamiyatning qudrati uning ichki xavfsizligi va barqarorligiga tayanadi. Ya'ni jamiyat, millat o'z g'oyasida mustahkam tursa, ikkilanmasa, har qanday dushman qo'llashi mumkin bo'lgan g'oyaviy tahdidlardan qo'rqmasa, bunday millatni engish mumkin emas. Aksincha, jamiyat ichida g'oyaviy parokandalik, bo'linishlar bo'lsa dushmanlarga, ularning yot mafkuralariga yo'l ochib beradi. Bunday millatni engish, mustamlaka qilish oson kechadi.

Demak, vayronkor g'oya deb, *turli ta'sirchan vositalardan foydalanib, odamlarni soxta va puch maqsadlarga ergashtiruvchi, ularning kuch-qudratini*

buzg'unchilik va jinoyatga yo'naltiradigan, insoniyat uchun faqat kulfat keltiradigan g'oyaga aytiladi.

Shu bilan birga vayronkor g'oyalarning mazmun-mohiyatini, maqsad-muddaolarini bilish nihoyatda muhim. Bu fuqarolar, ayniqsa yoshlar uchun buzg'unchi g'oyalar xavfini anglash, o'zlarida mafkuraviy immunitet hosil qilish uchun zarur bilimlarni egallashga yordam beradi.

Vayronkor g'oyalar odamzot boshiga ko'pdan ko'p fojialar keltirgan. O'rta asrlarda Farbda amalga oshirilgan salib yurishlari SHarqdagi muqaddas erlarni xristian bo'lmagan xalqlardan tozalash bahonasida qanchadan-qancha urushlar sabab bo'lgan. Vayronkor mafkuralar, vayronkor xatti-harakatlar asosida g'ayriinsoniy g'oyalar yotadi. Ular insonga, insoniyat erishgan yutuqlarga nafrat bilan qarashni, buzg'unchilikni rag'batlantiradi. Vayronkor mafkuralarning ko'rinishlari:

1. Diniy fanatizm - diniy mutaassiblik bo'lib, hayotda faqat muayyan qoidalarni ustun deb biladigan, xudo haqidagi haqiqatni o'ziniki qilib olishga intiladigan, taraqqiyotni, turli fikrlilikni tan olmaydigan, har qanday yangilikni kufrga yo'yadigan zararli oqim. Bugungi kunda bizning mintaqamizda 1) vahhobiychilik, 2) «Hizbut-tahrir», «Akromiyalar» kabi aqidaparastlik oqimlari o'z g'oyalarni yoyishga xarakat qilmoqda. Aqida - arabcha e'tiqod qilish ma'nosini bildiradi. Aqidaparastlik - yovuz g'oya va mafkuralarning eng ko'p tarqalgan shakli. Aqidaparastlikning teskarisi hurfikrlilikdir. Hurfikrlilik - erkin fikrlash asosida haqiqatni anglash degani. Aqidaparastlik o'rta asrlarda Farbda inkvizitsiya shaklida namoyon bo'lgan. Aqidaparastlik bugungi kunda Afg'oniston, SHimoliy Kavkaz va boshqa mintaqalarda vahhobiylik asosida kurash olib borayotgan oqimlar misol bo'la oladi.

2. Fashizm - (lotincha «fashio», italyanacha «fashizmo») - bog'lam, to'da ma'nosidagi so'zlardan olingan) natsional, ya'ni millatchi sotsialistlar ta'limoti, fashizm deganda, konstitutsiyaviy - demokratik tuzumga zid bo'lgan ijtimoiy va davlat tuzilmasi ham tushuniladi. Germaniyada milliy sotsialistik partiya tuzgan A.Gitler esa fashizmning «ma'naviy otasi»ga aylandi. Fashizm 1939-1945 yillarda II jahon urushi olovini yoqdi. 50 mln.dan ortiq kishining qirilib ketishiga sabab bo'ldi. O'zbekiston jangchilaridan 263005 kishi halok bo'ldi, 132670 kishi dom-daraksiz ketdi, 604552 kishi nogiron bo'ldi.

Fashistik davlat tuzilmalari XX asr 70-yillariga kelib Evropa mamlakatlarida hukm surgan fashistik tartiblar barbod bo'ldi. CHunonchi, Salazar hukmronligi davrida Portugaliyada, Franko hukmronligi davrida Ispaniyada, Mussolina hukmronligi davrida Italiyada, Gitler hukmronligi davrida Germaniyada¹ va Gretsiyada fashistik tartiblar tugatildi. SHuningdek, fashizm deganda, o'n yillar mobaynida Evropada faoliyat olib borgan o'ng ekstremistik harakatning mafkurasi, nazariyasi va amaliyoti tushuniladi. Bugungi kunda ba'zi mamlakatlarda (Avstriya, Germaniya va boshq.) Fashistik unsurlarning muayyan darajada faollashuvi kuzatilmoqda. YAngi fashizm g'oyasi insoniyat uchun zararli ekanligini har bir inson anglamog'i lozim.

3. Bolshevizm - XX asrda Rossiyada faoliyat olib borgan ekstremistik yo'nalishdagi siyosiy kuchning mafkurasi, nazariyasi va amaliyotini ifodalaydi...

¹ Tohir Karim. Milliy tafakkur taraqqiyotidan. T.: «CHo'lpon», 2003. 129-bet.

Bolshevizm va fashizm mafkuralari o'rtasida ko'plab o'xshash jihatlar mavjud. Ayni paytda jiddiy tafovutlar ham ko'zga tashlanadi. Asosiy farqlardan biri, bu millat omilining turlicha baholanishidir. Bolshevizm mafkurasi kommunistik ta'limot, xalqlarning milliy-etnik o'ziga xosliklarini yo'qotish, «proletar baynalminaligi» shiori bilan maydonga chiqqan bo'lsa, fashizm bor hukmron millatning «irqiy-etnik sofliги»ni mutlaqlashtirishni targ'ib-tashviq etadi. U irqchilikning homiysi hisoblanadi.

4. «Rasizm» so'zi «rasa» (irq) atamasidan kelib chiqqan. Bu atama XVII asrdan boshlab Evropada «insoniyat nasli»ni turli irqiy guruhlar, jumladan, «oq», «qora» va «sariq» irqqa ajratish uchun qo'llana boshladi.

Irqchilik - odamlar o'rtasidagi ijtimoiy tengsizlik, bosqinchilik, zo'ravonlik va urushlarni kishilarning turli irqlarga mansubligi bilan oqlashga xizmat qiluvchi g'ayrimilliy ta'limot². Irqchilik ta'limoti «oq tanli»larning afzalligi, ularning azaldan «oliy irq» etib tanlangani, boshqa irqlarning esa «oq»larga qaraganda nomukammal yaratilganligi va hamisha taraqqiyotning quyi pog'onalarida turishini «asoslab» beradi. Uning asosiy g'oyasi o'zining «ilohiy» tabiatiga ko'ra «oq» irqlarni «quyi» irqlar ustidan hukmron qilishga da'vat etishga qaratilgan edi. Irqchilik milliy mansubligi va terisining rangiga ko'ra ajralib turuvchi kishilarga tazyiq o'tkazish, ularni haqoratlash, urish va o'ldirish kabi harakat-hodisalarda yaqqol namoyon bo'ldi. Ijtimoiy hukmronlik shakllaridan birining mafkurasi bo'lar ekan, u buyuk davlatchilik, ashaddiy shovinizm, «tanlangan» xalqlarning milliy afzalligi g'oyalari bilan chambarchas bog'lanib ketadi.

5. Irqchilik - ko'p qiyofali. Masalan, o'zini oliy irq hisoblagan ingliz, ispan, frantsuz bosqinchilari o'rta asrlar va ayniqsa, XVIII-XIX asrlarda Amerika, Avstriya, Afrika va Osiyoda erli xalqlarni ko'plab qirib tashladilar. Janubiy Afrika Respublikasi tomonidan XX asrda uzoq yillar mobaynida o'tkazib kelingan irqiy ayirmachilik siyosati - shafqatsiz irqiy tahqirlash va kamsitishda o'z ifodasini topdi. 1865 yilda AQSHda tuzilgan «Ku-kluks-klan» terroristik tashkiloti ham o'zining oshkora irqchilik yo'nalishidagi faoliyati bilan ajralib turadi. Negrlarning fuqarolik huquqlariga qarshi kurash va ularni mamlakatdan chiqarib yuborish uning asosiy g'oyasi hisoblanadi.

6. Terrorizm (lot. Terror - qo'rquv, dahshat) - ma'lum yovuz maqsad yo'lida kuch ishlatib, odatlarni jismoniy yo'q qilishdan iborat bo'lgan g'oyaga asoslangan zo'ravonlik usuli. Terrorizm bugungi kunda ham insoniyatga katta tahdid solmoqda. Jamiyatga doimiy qo'rquv, fitna-g'alamislik muhitini vujudga keltirish, zo'ravonlik yo'li bilan jamiyat barqarorligini buzish, gunohsiz kishilar, jumladan, bolalarning halok bo'lishiga olib keladigan siyosiy maqsaddagi o'ldirish va portlashlar bu mudhish g'oyaning asl mohiyatini tashkil etadi.

Siyosiy terrorizm XIX asrdayoq vujudga kelgan edi. Lekin u XX yuz yillikda keng quloq yozdi. Farbiy Germaniyadagi «qizil armiya» yoki «Paoder-mayn xor» va Italiyadagi «Qizil brigadalar» guruhlari, Ispaniyadagi basklar tashkiloti, Olsterdagi «Inqilobiy-xaloskorlik armiyasi», Perudagi «Porloq hayot» kabi birlashmalar

² Ergashev I. va boshq. Milliy istiqloq g'oyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. -T.: Akademiya, 2005. 65-bet.

zamonaviy siyosiy terroristlarning birinchi avlodi edi. Keyingi yillarda dunyoning o'nlab mamlakatlarida, jumladan, bizning yosh davlatimiz chegarasiga yaqin davlatlar hududlarida ham terrorizm o'choqlari paydo bo'ldi. Ular mustaqil O'zbekistonga qarshi kuch ishlatishga urinib ko'rdilar. CHunonchi, 1999 yilda Toshkentda, Yangiobodda, 2000 yilda Sariosiyo va Uzun tumanlariga, Burchimullaga bostirib kirib, mamlakatimiz tinchligini buzishga urindilar. 2004 yil 28 mart - 1 aprel kunlari Toshkent shahri, Buxoroning Romitan tumani va Toshkent viloyatlarida, 2005 yil 12-13 mayda Andijon shahrida takroran terrorchilik harakatlari sodir etildi. YOvuz kuchlar harakati bostirildi.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov «Nezavisimaya gazeta» (Moskva)ning muhbiriga (2005 yil 14 yanvar) bergan intervyusida: «Xalqaro terrorizm» tushunchasi 2001 yilning 11 sentabridan ayniqsa urf, bo'ldi...»³ degan edi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 4 sessiyasida (2000 yil 14-15 dekabr) «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida» qonun qabul qilindi. Demak, buzg'unchilik g'oyalarning ko'rinish, turlari quyidagilardan iborat:

- 1) salibchilarning g'oyalari (o'rta asrlardagi);
- 2) diniy fanatizm;
- 3) ateizm;
- 4) fashizm;
- 5) bolshevizm;
- 6) aqidaparastlik;
- 7) kosmopolitizm (jahonga hukmron bo'lishlik);
- 8) nigilizm (ijtimoiy taraqqiyotni inkor etish);

Ana shu g'oya va mafkuralarning tsivilizatsiya tarixidagi namoyon bo'lish shakllari quyidagilardan iborat:

- 1) buyuk davlatchilik, shovinizmi;
- 2) tajovuzkor millatchilik;
- 3) irqchilik;
- 4) terrorchilik;
- 5) shovinizm;
- 6) diniy aqidaparastlik;
- 7) diniy ekstremizm.

YOvuz g'oya va mafkuralarning eng ko'p tarqalgan shakli aqidapa-rastlikdir. Bunday mafkuralar muayyan davrlarda Farbdam ham, SHarqda ham hukmronlik qilgan. Bu ijtimoiy illat XXI asrga qadam qo'ygan hozirgi davrda ham dunyodagi tinchlik va taraqqiyotga tahdid solmoqda.

Aqidaparastlik qanday shaklda bo'lmasin hamma zamonlarda ham jamiyat uchun birdek xavf-xatarlidir.

O'rta asrlarda Farbdagi aqidaparastlik mafkurasi bo'lgan inkvizitsiya cherkovning mutlaq hukmronligini o'rnatib, hur fikr rivojiga, jamiyat taraqqiyotiga

³ Karimov I.A. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar deb hisoblashar edi. -T.: «O'zbekiston», 2005. 29-bet.

to'siq bo'ldi. Galiley va Koppernik kabi yuzlab buyuk aql-zakovat sohiblari ana shunday aqidaparastlik ta'qidiga uchraganlar. Jordono Bruno ilmiy qarashlari uchun jaholat qurboni bo'lgan.

Sharqda esa Imom Buxoriy, Ibn Sino singari buyuk allomalar ham turli tazyiqlarga duchor bo'lganlar. Mansur Halloj, Nasimiy, Boborahim Mashrab singari hur fikrli zotlar esa qatl etilgan.

Toki dunyoda taraqqiyotga intilish, bunyodkorlik hissi bor ekan, jamiyatda ilg'or g'oyalar tug'ilaveradi. Buzg'unchi g'oyalarning vujudga kelishiga esa vayronkor intilishlar sabab bo'ladi. SHunday ekan, ularga qarshi kurashga tayyor turish, ya'ni doimo huryosh va ogoh bo'lib yashamoq hayotning asosiy zaruratiga aylanmoqda.

Buzg'unchi g'oyalarga misol. Abulqosim Firdavsiy (tax. 940-941 yili Xurosonda, Eron va Afg'onistonning shimoli, Turkmanistonning janubiy qismlari, Tus shahri yaqinida Toboron qishlog'ida tug'ilgan). Uning buyuk asari «SHohnoma» 4 ming yillik voqealarni o'z ichiga olgan. YOsh Abulqosimning oilasi: u Toboron qishlog'ida kambag'allashib qolgan dehqon oilasida dunyoga kelgan. «Sen kambag'al bo'lsangda, - degan edi Firdavsiyning otasi, - qadim avlod-ajdodlaring buyuk kishilar edilar. Agar o'tmishda erlarimizni o'zga yurtlik bosqinlar egallab olmaganlarida bizlarni avlodlarimiz kami-ko'stsiz yashardi, hayotimiz yanada farovon bo'lardi».

Demak, barqarorlik va xavfsizlik - jamiyatning ongligiga, anglangan to'g'ri tushuncha va bilimlarga faol amal qilishiga, fikriy, g'oyaviy birligiga, bular esa xavfsizlik ma'rifatiga tayanadi. SHu boisdan ham har bir o'zbekistonlik millatidan, dinidan, tug'ilgan joyidan, kasbu yoshidan qat'iy nazar Vatan posboni bo'lishi lozim. Mamlakatimizning xavfsizligi uchun eng birinchi kafolat - o'zbekistonliklarning milliy istiqlol g'oyasi atrofida jipsligidir. Milliy istiqlol g'oyasining asosiy bosh g'oyasi va maqsadi: ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir.

Milliy istiqlol g'oyasi o'zining asosiy g'oyalari: 1) Vatan ravnaqi; 2) yurt tinchligi; 3) xalq farovonligi; 4) komil inson; 5) ijtimoiy hamkorlik; 6) millatlararo totuvlik; 7) diniy bag'rikenglikka tayanar ekan, ana shu g'oyalarga qarshi qaratilgan xatti-harakatlar tashqi va ichki tahdidlarning oldini oladi.

Tashqi tahdidlar - O'zbekistonning davlat chegarasidan tashqaridan kirib keluvchi, ichki tahdidlar esa O'zbekiston davlati, mamlakatning ichidan chiqayotgan tahdidlardir. Biz ko'p asrlar ana shu ichki tahdidlar tufayli mustamlakalikda yashab keldik⁴.

Ichki tahdidlar - o'z Vataniga, vatandoshiga, vatandoshlariga zarar etkazishga qaratilgan g'oya, xatti-harakatlardir. Ana shu ichki tahdidlarni quyidagi sxema asosida tasvirlash ham mumkin:

Ana shu tahdidlar qancha keng tarqalsa, mamlakat g'oyaviy birligiga shuncha ko'p zarar etkazadi, parokanda qiladi, hamjihatlik bo'lmaydi. Foyaviy birligi mo'rt millatning davlat xavfsizligi ham mo'rt bo'ladi.

Ichki va tashqi tahdidlar asosan g'oyaviy bo'shliq tufayli sodir bo'ladi. Demak, *g'oyaviy bo'shlik nima?* Foyaviy bo'shlik - deb, *eski hukmron mafkura*

⁴ Ergashev I. va boshq. Milliy istiqlol g'oyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriyat bosqichi uchun darslik. -T.: Akademiya, 2005. 92-93-betlar.

halokatga uchrab, u bilan bog'liq tushunchalarning qadrsizlanishi, bugungi hayot, o'tmish va kelajakka daxldor qadriyatlar, tushuncha va tasavvurlarni to'liq anglab etmasligi oqibatida odamlarning qalbi va ongida vujudga keladigan bo'shliqqa aytiladi.

Tajovuzkor mafkuralar bunday bo'shliqdan foydalanib, o'zlarining zararli g'oyalarini singdirmoqchi va odamlarni o'z ortidan ergashtirmoqchi bo'ladi. Sobiq kommunistik partiya hukmronligi barham topgach, bizning yurtimizga ham zararli oqimlar kirib kela boshladi. Bunga davlat va nodavlat tashkilotlari hamda siyosiy partiyalarning istiqloq g'oyasini, bozor munosabatlarini odamlar ongi va qalbiga tushuntirishda sustkashlik qilgani, ijtimoiy fanlarning jamiyatimizdagi yangiliklarni vaqtida tahlil qilib bermagani, jamiyat ruhiyati va tafakkurida ro'y berayotgan murakkab jarayonlarning o'z echimini topmagani ham sabab bo'ldi.

Sobiq sotsialistik mafkuraning illatlari fosh bo'lgach, nafaqat oddiy odamlar, hatto ziyolilar ham mafkuralarning hammasi taraqqiyot uchun zararli ekan, haqiqiy ozod va erkin bo'lish uchun har qanday mafkuradan xalos bo'lish kerak, degan fikrga borib qolgan edi. Odamlar bunyodkor va vayronkor g'oyalarning farqiga bormagani uchun shunday xulosaga kelgan edi. Biz faqat vayronkor g'oya - kommunistik mafkuradan voz kechgan edik. Bizga endi bunyodkor g'oya kerak edi. Chunki tabiatda vakuum - bo'shliq bo'lmagani kabi, mafkura sohasida ham bo'shliqqa yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Insoniyat tarixi shundan dalolat beradiki, muayyan jamiyat taraqqiyot jarayonida bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tishida turmushning barcha sohalarida, xususan, iqtisodiyot, ijtimoiyot va siyosiy sohada bo'lgani kabi, g'oyaviy-mafkuraviy sohada ham muayyan muammolarni hal qilish zarurati paydo bo'la boshladi. Chunki o'ziga xos yangi davr, sharoit, vaziyat an'anaga aylanib qolgan g'oyalar, qarashlar, munosabatlarni o'zgartirmasdan, ma'lum mafkuraga asoslanmasdan yangi maqsadlar sari qadam tashlay olmaydi. Bu esa yangi g'oya, qarash, munosabat, mafkurani ishlab chiqishni talab etadi.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov ta'kidlagani kabi: «O'zining hayotini, oldiga qo'ygan maqsadlarini aniq tasavvur qila oladigan, o'z kelajagi haqida qayg'uradigan millat hech bir davrda milliy g'oya va milliy mafkurasiz yashamagan va yashay olmaydi. Mafkura bo'lmasa har qaysi davlat va jamiyat, qolaversa, har qaysi inson o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar».

Foyaviy bo'shliqqa olib keluvchi sabablar quyidagilardan iborat:

1. Boshqa mafkuralarni tan olmaslik.
2. Yakka hokimlik (kommunistik) g'oyasining mutlaq hukmronligi va targ'iboti
3. «Yo'l boshchi sinf» mafkurasini nomigagina ijtimoiy guruhlar mafkurasini ekanligi.
4. Kommunistik mafkuraning odamlar vijdon erkinligini cheklab qo'yishi, kim unga jur'at qilsa «xalq dushmani»ga aylantirilishi.
5. Milliylikdan, qadriyatlardan butunlay xoli bo'lish.
6. Milliy tarix, O'zbekiston tarixi, o'tmishini tan olmaslik.
7. Xalqning diniga, diniy merosga, diniy qadriyatlarga mutlaq noto'g'ri munosabat va h.k.

XX asr 90-yillarning boshlarida bunday mafkuraviy bo'shliq O'zbekistonda ham namoyon bo'ldi. YA'ni deideologizatsiya siyosatiga olib keldi. Ana shu g'oyaviy bo'shliqning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat edi:

1. Kommunistik mafkura tanazzulga uchrab uning o'rni bo'sh qoldi.
2. O'zbekiston mustaqil davlat sifatida qaror topsada, uning mafkurasi ham shakllanmagan edi.
3. O'tish davrida yangicha qarashlar mustahkam e'tiqodga aylanib ulgirmasdan boshqa yot va begona mafkuralarning xuruji.
4. Markaziy Osiyo mintaqasidagi ekstremistik kuchlar, terrorchi to'dalarning mafkuraviy kurashni avj oldirishi va boshqa.

Bu sabablar natijasida mustaqillik yillarida, ayniqsa 1991-2005 yillar davrida mamlakatimizda ekstremistik kuchlar va terrorchi to'dalar tomonidan amalga oshirilgan buzg'unchilik, vayronchilik ishlarini misol qilib keltirish mumkin.

XX asr 90-yillarining boshlarida ayrim yoshlar, yurtdoshlarimizning zararli g'oya va mafkuralar ta'siriga tushib qolish sabablarini Prezidentimiz Islom Karimov asarlari asosida quyidagicha izohlab berish mumkin:

1. Dastlabki yillarda milliy g'oya, milliy mafkura to'liq shakllanib, odamlar qalbi va ongiga singib ulgurmagan.
2. O'zbekiston eski tuzumdan yangi tuzumga o'tish davrida bir qator tabiiy qiyinchiliklarga duch kelishi.
3. Bugungi kunda barcha yoshlarning serdaromad ish bilan ta'minlanmaganligi.
4. YOsh ayrim soddadil yoshlarning ishonuvchanligi tufayli diniy qadriyatlariga intilish tuyg'usidan ustalik bilan foydalanishi tufayli.
5. Targ'ibot-tashviqot ishlarining etarli olib borilmaganligi (bugun bu ishni siyosiy partiyalar «Ma'naviyat va ma'rifat» markazlari, «Kamolot» ijtimoiy yoshlar tashkilotlari va h.k. olib bormoqda).

Mafkura va mafkuraviy tarbiya masalasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan, demokratik huquqiy davlat, erkin fuqarolik jamiyatining asoslarini yaratayotgan mamlakatimiz uchun ham muhim hayotiy ahamiyatga ega. Zero, ko'zlangan maqsadlarga ushbu orzu-umid va intilishlarni o'zida mujassamlashtirgan g'oyaviy-nazariy qarashlar majmui bo'lmish milliy mafkura va unga asoslangan tarbiya tizimisiz erishish mumkin emas. «Men, - deb yozadi Prezidentimiz, - Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir» degan fikrini ko'p mushohada qilaman. Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdir».

Bu masalaning dolzarbligi yuqorida qayd etilgan mafkura shakllarining xavfini bartaraf etish zarurligi bilan ham belgilanadi. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, ularga g'oya va ma'rifat bilan qarshi kurashish lozim. Mamlakatimizdagi mavjud ijtimoiy hamkorlik, milliy birlik va hamjihatlikni saqlab qolish va rivojlantirish yo'li bilangina qo'lga kiritilgan istiqlolni himoya qilamiz. Xalqaro hamjamiyat, shu jumladan tarix taqozosi bilan aloqalar kuchli rivojlangan

davlatlar bilan teng huquqli, izzat-ikromli munosabat, o'zaro manfaatli aloqalar esa mustaqillikni mustahkamlashning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Ana shundagina mintaqamiz hech qachon tsivilizatsiyalar to'qnashmaydigan, balki ular bir-biriga ta'sir etib, bir-birini boyitishning ibratli namunasini beradigan makonga aylanadi.

Mafkuraviy ta'sir va tahdidlar haqida gap ketar ekan, ularni aniqlash, baholash, xususiyatlarini yaqqol ko'rsatish uchun O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov tomonidan *ilmiy muomalaga* bir qator tushunchalar kiritilganligini qayd etish lozim. Ular qatorida «*mafkuraviy immunitet*», «*mafkuraviy profilaktika*» kabilardir. Ana shu tushuncha-larning mazmuni oydinlashtirilganda hozirgi dunyoda kechayotgan mafkuraviy jarayonlarning xarakterini yanada yaqqolroq tasavvur qilish imkoni tug'iladi.

Mafkuraviy immunitetni hosil qilish. Mafkuraviy immunitet - ma'naviy barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun shaxsni tarbiyalashda, har qanday reaksiya, buzg'unchi xarakterdagi g'oyaviy tashabbuslarga bardosh bera oladigan yoshlarni tarbiyalashda qo'l keladi»⁵. «Mafkuraviy immunitet» tushunchasini birinchi bor Prezidentimiz Islom Karimov ishlatgan va unga quyidagicha ta'rif bergan (2000 y. 8 iyunda «Fidokor» gazetasi muhbiri savollariga javoblarida «Milliy istiqloq mafkurasi - xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir» nomli suhbatida): «Ma'lumki, har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta'bir joiz bo'lsa, ularning *mafkuraviy immunitetini* kuchaytirishimiz zarur».

Immunitet lotincha (*immunitatis*) so'zidan olingan bo'lib, biror narsadan xalos, ozod va farig' bo'lish, qutilishni, muayyan kasallikni qo'zg'atuvchi virusga, dardga qarshilik ko'rsatish qobiliyatini (masalan, inson tanasi immuniteti) bildiradi. «Immunitet» so'zining ma'nosi organizmning doimiy ichki barqarorligini saqlash uning turli xususiyatlarga va ta'sirlaridan himoyalaniishi, qarshilik ko'rsatishi, rezistentligini bildiradi. SHuningdek, u daxlsizlik ma'nosini ham anglatadi, (masalan, deputatlik immuniteti, diplomatik immuniteti).

Demak, mafkuraviy immunitet - davlat va millatning ma'naviy birligi, ma'naviy sog'lomligini himoya qiluvchi g'oyaviy qalqon vazifasini bajaradi. SHuning uchun ham Prezident Islom Karimov «Farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta'bir joiz bo'lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarar»ligi haqidagi fikrni alohida ta'kidlaganlar.

Aslida organizmni infeksiya agentlar va boshqa yot moddalardan himoya qilish omillari tabiati bo'yicha uchga bo'linadi:

1. Filogenetik immunitet - anatomik va fiziologik belgisiga ko'ra nasldan naslga o'tadigan himoyaviy rezistentligi. Bunda organizm yuqumli kasalliklarga chidamli bo'ladi.

2. Tug'ma immunitet (turga xos, tabiiy), nasbatan chidamli, nasldan naslga o'tadigan xarakterga ega.

⁵ Falsafa: qomusiy lug'at. -T.: Sharq, 2004. 160-bet.

3. Orttirilgan immunitet - hayot davomida orttirilgan immunitet. U o'z-o'zidan namoyon bo'lmaydi. Uning namoyon bo'lishi uchun ichki yoki tashqi g'oyaviy ta'sir bo'lishi kerak⁶.

Milliy g'oya asosidagi mafkuraviy immunitet, avvalo, har bir vatandoshimizning mustahkam e'tiqod va yuksak dunyoqarashga ega bo'lishini taqozo etadi. Insonning ko'plab xususiyatlari tug'ma bo'lsa, mafkuraviy immunitetni shakllantirib borish zarur. *Ikkinchidan*, har bir avlod uchun o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. *Uchinchidan*, immunitet tizimi shakllan-sagina mafkuraviy daxlsizlikni ta'minlaydi.

Foya faqatgina inson qalbini egallaganda, inson ma'naviy-ruhiy holatining uzviy qismiga aylangandagina harakatga da'vat etuvchi, rag'batlantiruvchi kuchga, harakat uchun qo'llanmaga aylanadi. SHuning uchun ham bugungi kunda nafaqat inson ongini, balki qalbini ham egallash mafkuraviy kurashning bosh maqsadi bo'lib qolmoqda. Mafkuraviy immunitet tizimining asosiy va *birinchi unsuri*, bu bilimdir. Ammo bilimlar ko'p... *Ikkinchi asosiy qismi* ana shu bilimlar zamirida shakllanadigan *qadriyatlar tizimidir*. *Uchinchi unsuri*: ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma'rifiy sohalardagi aniq mo'ljal va maqsadlar tizimi bilan bog'liq.

Talaba mafkuraviy immunitetining tarkibini: 1) mafkuraviy bilim; 2) his-tuyg'u; 3) iroda; 4) ko'nikma va 5) malakalar tashkil qiladi.

Mafkuraviy immunitet milliy mustaqillikning afzalligiga ishonch asosida quriladi. Ishonch esa ishontirish va tushuntirish natijasida hosil bo'ladi. Masalan, O'zbekiston - dunyoviy davlat diniy davlatni taqqoslash natijasida tushuncha hosil bo'ladi.

Demak, mafkuraviy immunitetni shakllantirish muayyan vaziyatda insonning o'zi, xalqi, Vatani manfaatlari birligidan kelib chiqib, yot g'oyalarga qarshi tura olish malakalaridir.

Mafkuraviy immunitetni shakllantirishda *mafkuraviy profilak-tikaning* o'rni katta. Mafkuraviy profilaktika xilma xil shakllarda ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladigan g'oyaviy-tarbiyaviy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy ishlar majmui, ya'ni ta'lim-tarbiya tizimini qamrab oladi.

Milliy g'oya asosidagi mafkuraviy immunitet har bir yigit-qiz, fuqaro mustaqillikning ma'no-mohiyati, Prezident Islom Karimov asarlarida ilgari surilgan bunyodkor g'oyalari; yurtimizda amalga oshirilayotgan islohot natijalari, Vatan va dunyo tarixi, umumbashariy tsivilizatsiya yutuqlariga doir bilimlarga tayanadi. Xulosa qiladigan bo'lsak, har bir kishi, jamoa va jamiyatning mafkuraviy bilim darajasini 5 holatga ajratish mumkin:

1. YUqorida zikr etilgan bilimlardan mutlaqo bexabar, shuning uchun ham turli g'oyalarga befarq, loqaydlilar.

2. Bilimlari bor, lekin ular hayot, turmush bilan bog'lanmagan.

3. Hayotiy, umume'tirof etilgan siyosiy, mafkuraviy bilimlari bor, lekin o'quvchi yoki talaba ularni hayotda qo'llashga qiynaladi.

⁶ Ergashev I. va boshq. Milliy istiqloq g'oyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. -T.: Akademiya, 2005. 95-bet.

4. O'quvchi-talaba asosli bilimlarga ega, vaziyatni to'g'ri baholaydi, turli mafkuraviy ta'sirlarga amaliy munosabat bildiradi.

5. O'quvchi-talaba zarur bilimlarni puxta egallab, ularni amaliyotda bemalol qo'llab, buzg'unchi g'oyalarga qarshi faol turadi.

Mafkuraviy immunitet insonning Vatan va xalq manfaatlarini yo'lidagi faoliyatida namoyon bo'ladi. Mafkuraviy immunitet erkin, mustaqil fikrlashni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat bilan qarashni, insonparvarlikni kundalik hayotiy faoliyatga aylantirishni taqozo etadi.

Mafkuraviy profilaktika - mafkuraviy immunitet tizimini shakllantiruvchi bosh omildir. U o'z mohiyatiga ko'ra yot g'oyalarning kirib kelishining oldini olish va ularni yo'qotishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini o'z ichiga oladi. Demak, mafkuraviy profilaktika xilma-xil shakllar ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladigan g'oyaviy-tarbiyaviy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy ishlar majmuini, bu sohada to'g'ri tashkil etilgan ta'lim-tarbiya tizimini qamrab oladi.

Millat ma'naviyati harakteriga quyidagi zaiflik belgilari salbiy ta'sir etishi mumkin:

- xafsalasizlik; - johillik;
- befarqlik; - hudbinlik;
- g'ayratsizlik; - yalqovlik va h.k.
- qo'pollik;

Hozirgi fan va texnologiyalar ravnaqi davrida boshqa kishilarning ongi va qalbiga yashirin, g'araz maqsad bilan ta'sir ko'rsatishni ifodalashda manipulyatsiya (manus - qo'l) so'zi, ya'ni «ob'ekt ustidan biror maqsadda ish olib borish» ma'nosida ishlatilmoqda. Bunda chaqqonlik, mahorat talab qilinishi ko'zda tutiladi. SHu sababli, «manipulyatsiya»ni ko'chma ma'noda «odamlar bilan ob'ekt sifatida munosabatga kirishish» deb ham tushuntirish mumkin. Bunda «boshqalarga bildirmasdan, asl maqsadni yashirin tutgan holda boshqalar ustidan hukmronlik qilib, o'zi istagan xulq-atvorni shakllantirish»dan iborat.

Shaxsning mafkuraviy immunitetiga ta'sir ko'rsatish jarayoni mani-pulyatsiya tushunchasida aks etadi. CHunki, «davlatchi»ning ta'siri 1) shaxsga nisbatan zo'rlik, kuch ishlatilmaydi, balki ma'naviy, psixologik xususiyatga ega; 2) bu ta'sirda asl maqsad yashirin qoladi. SHuning uchun ham «islom dini niqobida» degan ibora ishlatiladi; 3) g'oyaviy manipulyatsiya, zimdan ta'sir ko'rsatuvchidan mahorat va bilimni talab qiladi. SHuning uchun ham g'oyaviy manipulyatsiyani mafkuraviy kurash, yot mafkuralar tomonidan qo'llanilayotgan ta'sir texnologiyasining tarkibiy qismi, deb atash mumkin. Ya'ni, manipulyatsiya odamni u yoki bu ishni qilishga emas (targ'ibot va tashviqotdan farqli o'laroq), balki shu ishni qilishga xohish, istak uyg'otishga xizmat qiladi.

Har bir kishi yoki jamoa, jamiyat mafkuraviy immunitetni besh darajaga bo'lib o'rganish, baholash, uni shu asosda takomillashtirish mumkin:

1. Mafkuraviy immunitetning quyi darajasi - shaxs, jamoa, jamiyat yuqoridagi bilimlardan xabardor emas, buzg'unchi mafkuraviy g'oyalarga befarq, loqayd.

2. Darajasi - bilimlar bor, lekin ular his qilinmagan, sistemalashmagan, shu sababli ularni buzg'unchi mafkuraviy g'oyalarga qarshi ishlatishga tayyor emas.

3. Mafkuraviy bilimlarga ega, lekin ular nazariy, shaxs, jamiyat ularni qo'llashga qiynaladi.

4. Asosli bilimlarga ega, vaziyatni to'g'ri baholay oladi, ichki va tashqi siyosiy, mafkuraviy ta'sirlarga qarshi immunitet shakllangan va uni ongli ravishda ishlatadi.

5. Oliy daraja - mukammal g'oyaviy, siyosiy, iqtisodiy bilimlarga ega va bu bilimlarni bemalol amalda qo'llab, buzg'unchi mafkuraviy, siyosiy g'oyalarni doimo hamma joyda fosh qila oladi.

Xavfsizlik va barqarorlik tushunchalari. Olamga ikki narsa tahdid soladi: tartib va tartibsizlik. (Pol Valeri). Xalqaro munosabatlarini pessimistik nigoh ostida tahlil etuvchi - *realizm nazariyasiga* ko'ra, har bir davlat o'z xavfsizligi nuqtai nazaridan boshqa davlatlarga nisbatan ehtiyotkorlik bilan qaraydi. YA'ni, davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda do'stona aloqalardan ko'ra o'z milliy manfaatlarini ustuvorligi birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Mazkur nazariya mohiyatiga ko'ra, har bir davlat xatardan xoli bo'lishni va rivojlanishni istasa, boshqa davlatlarga raqobat ko'zi bilan qarashi, dushman hamisha va har erda mavjud degan aqidaga asoslanishi lozim. *Terror tashkiloti* ham o'z dushmanisiz mavjud bo'lishi mumkin emas. Dushmanning mavjudligi terrorchi tashkilot tuzilishi uchun hal qiluvchi omil hisoblanadi. Har qanday terrorchi tashkilotning pirovard maqsadi o'z dushmani ustidan to'la g'alaba qozonishga erishishdan iborat. Biroq davlatlarda hamisha ham bu maqsad namoyon bo'lavermaydi.

Demak, Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta'minlashning ayrim jihatlari mavjud. Bugungi kunda mintaqaviy mojarolarning turkum omillari yalpi xavfsizlikka asosiy tahdid solmoqda. fikrimizcha, mintaqamizdagi tanglik vaziyatlarining yuzaga kelishida va saqlanib turishida asosiy sabab bo'luvchi ichki va tashqi omillar mavjud.

Ichki omillar quyidagilardan iborat:

1. Mafkura va ma'naviyatda yuzaga kelgan bo'shliq hamda uning turli xil diniy va ekstremistik g'oyalar bilan to'ldirilishi.

2. Aholining talay qismini qamrab olgan qashshoqlik va ishsizlar sonining ko'payishi. Buning oqibatida turli xil radikal va agressiv g'oyalar tarqalishining kuzatilishi.

3. Mintaqadagi ba'zi bir davlatlarning o'z hududini to'liq himoya qila olmasligi va buning oqibatida bir davlatdan ikkinchi bir davlat hududiga uyushgan jinoyatchilikning va separatizmning tarqalishi.

4. Korruptsiya, poraxo'rlikning ko'payishi.

5. Mintaqadagi hududiy, toza ichimlik suvi borasidagi muammolar va h.k.

Tashqi omillar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Markaziy Osiyo mintaqasining dunyodagi mojaroli nuqtalarga yaqin joylashishi (SHimoliy Kavkaz, Afg'oniston, Kashmir hududlari). Buning oqibatida xalqaro terrorizmning tarqalishi.

2. Ba'zi bir siyosiy kuchlar tomonidan mintaqadagi vaziyatning barqarorlashuviga bo'lgan manfaat va ta'sir. Bu, albatta, doim ham iqtisodiy muammolar bilan emas, balki hududiy va g'oyaviy masalalar bilan bog'liq.

3. 2001 yilning 2 sentabridan boshlab, mintaqa mamlakatlari Osiyo davlatlari uchun ham, Evropa davlatlari uchun ham yanada muhim gessiyosiy ahamiyat kasb

etdi. Evroosiyodagi kuchlarning an'anaviy qaror topgan geosiyosiy muvozanatini o'zgartirib yubordi.¹

Insoniyat hayotida g'oyaga qarshi - g'oya, jaholatga qarshi - ma'rifat tamoyili. Islom Karimov 1998 yili «Tafakkur» jurnali bosh muharriri bergan savollariga javobda, tarixchi olimlar bilan bo'lgan uchrashuvda bu masalaga diqqat bilan e'tibor berib, «g'oyaga qarshi g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin» degan shior o'rtaga tashlandi. Bu masala g'oya va mafkura tushunchasida ham muhim o'rinda turadi.

YOt g'oyaga qarshi biz o'z olijanob g'oyamizdan maktablarimizda, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarda, oliy o'quv yurtlarida, jamiyatimizning barcha qatlamlarida bizga mutlaqo begona bo'lgan zaharli intilishlarga, huruj va harakatlarga qarshi chiqishimiz lozim. Bunda eng muhim masalalardan biri odamlar o'z fikrini aytishga, erkin fikrlashga o'rganishi kerak. YA'ni fikrga qarshi fikr bo'lishi zarur. SHu bois yoshlarimizni maktab va oliy o'quv yurtlarida erkin fikrlashga, baxslashishga o'rgatishimiz kerak. Uchinchi masala - *jaholatga qarshi ma'rifat*. Bu o'rinda asrimiz boshida xalqni ma'rifat va milliy uyg'onishga chorlagan jadidchilik harakati namoyandalari hayotini, ijodini, intilishlarini o'rganish, ularning bugungi kundagi mohiyati va ahamiyati haqida ham gapirishimiz zarur. Ularning merosi bugungi kunda qanday o'qitilmoqda? Umuman aytganda, ma'rifiy ozuqa qanday bo'lishi kerak? Bolalarimiz o'qiyotgan kitoblarda ma'rifat ziyosi bormi. Biz istayotgan milliy g'urur, milliy mafkura, milliy g'oya ularda etarli darajada aks etganmi?

Mazkur tamoyilga ko'ra g'oyaga qarshi g'oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashga intilish xissi inson qalbidagi e'tiqod, odam ongidagi dunyoqarash o'z-o'zini himoya qila olish qobiliyatidan dalolat beradi. Bunday kurash usuli, ayniqsa bugungi kunda, insoniyat taraqqiyot borasida juda ilgarilab ketgan XXI asrda g'oyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda. CHunki eng kuchli qirg'in qurollari ishlab chiqilgan, sayyoramizni bir necha marta yo'q qilib yuborishga qodir bo'lgan yadroviy bombalar zahirasi to'planib qolgan paytda o'zaro zo'ravonlik va jaholatga yo'l qo'yib bo'lmaydi. SHu boisdan ham mafkuraviy *immunitetni shakllantirish* xususiyatlari ogohlik, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurasha olish ko'nikmalaridir. Har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta'bir joiz bo'lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur».

Ushbu vazifani milliy istiqlol g'oyasi bajaradi. Prezidentimiz «*Millatni asrash kerak*» degan g'oyani ilgari surdi. Millatni asrash - o'zligimizni, odob-axloqimizni, merosimiz, qadriyatlarimiz va milliy ruhimizni zararli g'oyalar va mafkuralar ta'siridan avaylab-asrash, ularga qarshi fuqarolarimiz va yoshlarimiz qalbida mafkuraviy immunitetni shakllantirish degan ma'noni anglatadi⁷. Mafkuraviy

¹ Saidolimov S.T. Markaziy Osiyoda havfsizlikni ta'minlashning ayrim jihatlari. «Halqaro munosa-batlar» jurnali, 2004, № 1, 20-22 b.

⁷ Ergashev I. va boshq. Milliy istiqlol g'oyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. -T.: Akademiya, 2005. 78-bet.

immunitetni hosil qilish uchun sog'lom, insonparvar g'oya va mafkura bilan qurollantirish kerak. Milliy istiqlol g'oyasining asosiy vazifasi esa xalqimizda milliy e'tiqod va dunyoqarash asoslarini shakllantirishdan iborat.

Ma'rifat vositasida kurashish deb, biron bir xavfning mohiyatini chuqur anglab, unga qarshi bilim bilan ongli ravishda kurashishga aytiladi.

Jamiyat ahlining mustahkam va ravshan mafkurasini, uning maqsad-muddaosi bo'lishi kerak. Modomiki, maqsad, g'oya haqida mulohaza yuritar ekanmiz, oldin bayon etganimizdek, «Maqsad degani - xalqni, millatni birlashtiruvchi, yo'lga boshlovchi bamisoli bir bayroq. Bu bayroq butun O'zbekiston xalqining ruhini, g'urur-iftixorini, kerak bo'lsa, qudratini, orzu-intilishlarini mujassamlashtiradigan ulug' kuchdir. Davlatimizning, xalqimizning, el-yurtimizning maqsadi o'zining ulug'vorligi, hayotiyliigi va haqqoniyliigi bilan hammamizni jalb etadigan bo'lmog'i lozim. Toki bu maqsad xalqni - xalq, millatni - millat qila bilsin, qo'limizda engilmas bir kuchga aylansin».

Prezidentimiz Islom Karimov «Tafakkur» jurnali Bosh muharririning savollariga javoblari «Jamiyatimiz mafkurasini xalqni - xalq, millatni - millat qilishga xizmat etsin» asarida jamiyat mafkurasiga quyidagicha ta'rif beradi. «Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rnini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kun o'rtasida o'ziga xos ko'pri bo'lishga qodir g'oyani men jamiyat mafkurasini deb bilaman»⁸.

Vijdon erkinliigi bizda O'zbekiston Konstitutsiyasining 31-moddasi va 1998 yilgi «Vijdon erkinliigi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonun bilan kafolatlanib kelinmoqda. Bunday jamiyat mafkurasini «Dunyoviylik - dahriylik emas» degan tushuncha asosida rivojlanadi, ya'ni dinning jamiyat hayotida tutgan o'rnini va ahamiyatini aslo inkor qilmaydi. Biz yuqorida mafkuraning dunyoviy va diniy ildizlari haqida fikr yuritganimizda bu masalaga to'xtalgan edik. Haqiqatan dunyoviy va diniy g'oyalar bir-biri bilan mushtaraklikda rivojlanadi. Ular insoniyat taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatib kelgan.

Milliy davlatchilik g'oyasi va uning xalqlar taraqqiyotiga bevosita katta ta'sir ko'rsatgan. Hozirgi davrda milliy mafkuraning tarkibiy qismi hisoblangan *davlatchilik g'oyasining* asosiy tamoyillari Prezident Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan. Ular quyidagilardan iborat:

1. Vtanparvarlikka asoslangan mustaqil tafakkur⁹.
2. SHarqona demokratiyaga asoslangan siyosiy tizim.
3. Qonun ustuvorliigiga asoslangan huquqiy davlat.
4. Erkinlikka asoslangan fuqarolik jamiyati.
5. Buyuk kelajakka yuz tutgan ozod va obod vatan.

SHu tamoyillar jamiyatimiz hayotiga tatbiq qilinishi, ularni ro'yobga chiqarish mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi davrdagi muhim vazifalari bo'lib qolmoqda.

Bunyodkor g'oyalarning yuzaga kelishida ijtimoiy barqarorlik muhim ahamiyatga ega. SHu boisdan ham Islom Karimov o'zining «O'zbekiston XXI asrga

⁸ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. -T.: «O'zbekiston», 1999. 89-bet.

⁹ «Muloqot» jurnali. 2000. №6. 7-bet.

intilmoqda» asarida Oltinchi ustuvor yo'nalish¹⁰ - jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikni, sarhad-larimiz dahlsizligini, mamlakatimiz hududiy yaxlitligini ta'minlashdan iborat qilib ko'rsatgan.

6. Biroq, g'oyaviy kurash tobora yangi-yangi qiyofaga kirmoqda. Prezidentimiz Islom Karimov haqqoniy ravishda ta'kidlaganidek: «Ko'p sinovlar, azobu uqubatlar, xatolar, fojealar, qatag'onlarni boshdan kechirgan, asrimiz poyoniga etayotgan, insoniyat yangi asr bo'sag'asida turgan bugungi kunda turli xil eski va yangi mafkuralarning o'zaro kurashi har qachongidan ham ko'ra shiddatli tus olmoqda. Rang-barang, ba'zan bir-biriga zid dunyoqarashlar, siyosiy, milliy, diniy oqimlar, mazhab va sektalar o'rtasidagi fikr talashuvlari goho bahs-munozara doirasidan chiqib, qonli to'qnashuvlar, ommaviy qirg'inlarga sabab bo'lmoqda, odamlar boshiga behisob qayg'u-kulfatlar solmoqda».

Ana shu sababdan ham mustaqil O'zbekistonda hozirgi davrda millat, jamiyat, davlatning birlashtiruvchi bayrog'i bo'lgan milliy g'oya va mafkurani shakllantirish va xalqimiz ongiga singdirish yuzasidan faollik bilan ish olib borilmoqda.

Bu mafkura mustaqillik yillarida erishilgan g'alabalarni, eng katta yutug'imiz bo'lgan istiqlolimizni, Ona Vatanimizni, farzandlarimizning baxtli kelajagini fidoyilik bilan himoya qilish, doimo hushyor va sergak bo'lishga yordam beradi. Zero, O'zbekiston bizning umumiy uyimiz - uni asrash har birimizning vazifamizdir. SHu ma'noda milliy istiqlol g'oyasi har birimizning qalbimizga singadigan, umumiy g'oyamiz, ongimiz, dunyoqarashimizning tarkibiy qismidir.

XX asrning oxirgi o'n yili jahon xaritasini o'zgartirib yubordi, sobiq ittifoq barham topdi, mustaqil davlatlar shakllandi. O'tgan o'n yil O'zbekiston uchun ham qutlug' keldi - mamlakatimiz Islom Karimov rahbarligida mustaqillikka erishdi. Milliy davlatchilik an'analarini tikladi. YAngi Konstitutsiya qabul qilindi, jamiyat hayotining barcha soha-larida tub o'zgarishlar sodir bo'ldi, mamlakatimiz o'ziga xos va mos rivoj-lanish yo'li - taraqqiyotning o'zbek modelini amalga oshirishga kirishdi.

SHu bilan birga o'tish davri - faqat yutuq va muvaffaqiyat emas, balki hayotning barcha sohalarida totalitarizmdan qolgan salbiy oqibatlariga barham berish, fuqarolar ongini o'zgartirish, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy sohada tub burilishlar qilish bilan bog'liq yillari bo'ldi.

Tarixdan ma'lumki, umrini o'tab bo'lgan g'oya, aqida yoki mafkura taraqqiyot nuqtai nazaridan inkor etilishi natijasida g'oyaviy bo'shliq vujudga kelib, turli mafkuraviy tahdidlar kuchayishi mumkin. SHu ma'noda, Prezident Islom Karimovning quyidagi fikrlari katta ahamiyatga ega: «Men ko'hna bir haqiqatni yana eslatmoqchiman: tabiatda bo'shliq bo'lmaganidek, insonning ongu tafakkurida ham bo'shliq vujudga kelishiga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. O'zbekistonning mustaqillikka erishganidan keyingi taraqqiyoti bu fikrni naqadar to'g'ri ekanini yaqqol ko'rsatadi».

Foyaviy, mafkuraviy tahdid kuchaygan joyda aholi keng qatlamlari, xususan, yoshlarning qalbi va ongini egallashga qaratilgan urinishlar kuchayib borishi mumkinligi chuqur anglab olindi. Holbuki, bugungi kunda ayniqsa, dunyoning turli mamlakatlarida joylashgan, katta moliyaviy va mafkuraviy ta'sir kuchiga ega bo'lgan ba'zi g'oyaviy markazlar istiqlolning dastlabki yillaridagi vaziyatdan foydalanib, o'z

¹⁰ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: «O'zbekiston», 1999. 19-bet.

yovuz niyatlarini amalga oshirish yo'lida kechayu kunduz harakat qiladilar. Bu masalalar Prezidenti-mizning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida atroflicha tahlil qilingan.

Jamiyatda, xususan, har qanday davlatning siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy barqaror rivojlanishi ikki muhim jihat bilan bog'liq bo'ladi: *birinchisi*, ijtimoiy-siyosiy *beqarorlik* (albatta uning oldini olish kerak), ya'ni notinchlik bo'lsa, *ikkinchisi*, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik-dir. Prezidentimiz Islom Karimov mustaqillik yillarida xalqimizni doim ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka da'vat etib kelmoqda.

Ijtimoiy-siyosiy beqarorlik, notinchlik belgilariga quyida-gilar kiradi: tajovuzkorlik, aqidaparastlik, diniy ekstremizm, islom fundamentalizmi, davlat shovinizmi, millatchilik, agressiv millatchilik, korruptsiya va jinoyatchilik, mahalliychilik va urug'-aymoqchilik, shuningdek, o'z siyosatini, ta'sirini o'tkazish va hukmronlik qilishga urinayotgan kuchlar, terrorizm va hokazo. Masalan, ana shunday yovuz kuchlarning ba'zi a'zolari tomonidan sun'iy ravishda 1989 yil may-iyun oylarida Farg'ona, 1990 yil fevral-mart oylarida Po'ka va Parkentda, 1990 yil iyun oyida O'sh va O'zganda dahshatli voqealar sodir etildi. 1991 yil 8 dekabrda Namangandagi sobiq viloyat ijroqo'mi binosini egallab olgan diniy ekstremistlarning konstitutsion tuzumga qarshi tajovuzlari. 1992 yil 16 yanvarida Toshkentdagi talabalar shaharchasida uyushtirilgan tartibsizliklar. 1999 yil 16 fevral kuni soat 14 ga yaqin mamlakatimiz poytaxti Toshkentda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi binosi yonida kuchli portlash sodir etildi. SHunday portlashlar shahardagi «Nodirabegim» kinoteatri, Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, Ichki ishlar vazirligi binolari yonida ham yuz berdi. Portlashlar oqibatida 13 kishi halok bo'lib, bir necha mashina yonib ketdi. Jabrlanganlarning deyarli barchasi tinch aholi vakillaridir. 128 nafar odam turli darajada tan jarohati oldi.

Xuddi shunday tashqi va ichki dushman tomonidan sun'iy ravishda tashkil qilingan harbiy harakat 2000 yil avgustda Surxondaryo viloyatining Sariosiyo va Uzun tumanlari, Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumani hududlarida ham sodir etildi. Bu qo'poruvchilik harakatida ishtirok etgan 12 nafar jinoyatchini uzoq muddatlarga ozodlikdan mahrum etish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining chiqargan hukmini barcha yurtdosh-larimiz ma'quladilar. Portlashlarni sodir etgan ijrochilar va bu kuchlarning orqasida turgan yovuz, johil kimsalar halok bo'lganlarning tirnog'iga ham arzimaydi.

2004 yil 28 mart - 1 aprel kunlari Toshkent shahri, Buxoro va Toshkent viloyatlarida takroran terrorchilik harakatlari sodir etildi.¹ Bir necha begunoh odamlar, militsiya xodimlari qurbon bo'ldilar. YOvuz kuchlar harakati bostirildi. Jinoyatchilarning o'zlari tomonidan yasalgan moslamalarning portlashi tufayli hamda maxsus operatsiyalar davomida 33 nafar terrorchi yo'q qilindi, ularning 7 nafari ayollardir. Qo'lga tushirilgan 54 nafar gumondor shaxslardan 45 nafariga nisbatan ayblov e'lon qilingan, ularning 15 nafari ayollardir. 2004 yil 30 iyul kuni Toshkent shahrida Isroil va AQSH elchixonalari oldida, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi binosida terrorchilik harakatlari uyushtirildi. Buning natijasida 4 ta begunoh fuqarolarimiz halok bo'ldi. Jinoyatchilar qilmishiga yarasha jazolandilar.

¹ O'zbekiston: 13 yil mustaqil taraqqiyot yo'lida. - T.: «O'qituvchi», 2004. 8-b.).

2005 yil 12-13 may kunlari Andijon shahrida ana shunday qo'poruvchilik, terrorchilik harakatlari uyushtirildi. Natijada 200 ga yaqin O'zbekiston fuqarolari qurbon bo'ldi. Xalqimizning tinch va osoyishta hayotiga tajovuz qilishga urinayotgan kuchlar hech qachon o'zining qora niyatiga etolmaydilar.

2005 yil 13 mayda sodir bo'lgan Andijon voqealari Davlatimiz rahbarining 2005 yil 14 may kuni Oqsaroy qarorgohida, 17 may kuni O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida o'tkazilgan matbuot anjumanlaridagi bayonotlari, muhbirlarning savollariga javoblarida aytib o'tildi. Andijon voqealari to'g'risida uydirma va haqiqat oydinlashtirildi. Islom Karimovning 2005 yil 19 avgust kuni Oliy Majlis Senati Kengashining majlisida so'zlagan nutqi O'zbekiston yovuzlik va terror yo'lidagi mustahkam to'siq bo'lganligi alohida ta'kidlandi. SHu boisdan ham doimo ogoh bo'lish zaruriyati yana bir bor bayon etildi. Mavzuni yoritishda ogohlik mustaqillikni asrab-avaylash, himoya qilish va mustaqillikning muhim sharti ekanligi Islom Karimovning «Ogoh bo'ling, odamlar» degan da'vati bilan bog'lamoq kerak. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bog'liq jarayondir¹¹. Mamlakatimizdagi ko'plab mahallalarda «O'z uyingni o'zing asra!», «Tinchlik uchun kurashmoq kerak!», «O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi» degan shiorlar ostidagi harakatlar, ularning tinchlikni mustahkamlashdagi ahamiyati keng bayon etildi.

Umuman, bu tajovuzkor aqidaparastlar mustaqil davlatlardagi o'tish davri qiyinchiliklaridan foydalanib qolishga urinmoqda. Prezident Islom Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida «O'tish davrining keskin ijtimoiy muammosi ko'p kishilar uchun qaror topgan turmush tarzining buzilishidan, hayotiy mo'ljalning, fikrlash tarzi, ijtimoiy fe'l-atvor, boqimandalik kayfiyatlarining o'zgarishidan iborat. O'tish davrida odamlarning tafakkur yuritish psixologiyasi o'zgaradi, bu esa, ayonki, hamma vaqt ham oson kechavermaydi»¹². YUrtboshimizning bu falsafiy, mantiqiy fikrlarini hayotning o'zi tasdiqlab turibdi.

Shu boisdan ham jamiyatimizda hozirda mavjud bo'lgan, ko'zga yaqqol tashlanayotgan, ba'zi sodir bo'layotgan korrupsiya, ta'magirlik, poraxo'rlik, loqaydsizlik, boqimandalik kabi illatlarning ildiziga bolta urish lozim. Tabiiy va sun'iy yuzaga keladigan ijtimoiy-siyosiy beqarorlik xavf-xaratlarining oldini olish zarur. Bular yurtimizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni mustahkamlash uchun muhim va hal qiluvchi rol o'ynamog'i darkor.

Mana shu yuqorida bayon etilgan illatlarning oldini olmaslik va ularni tagtomiri bilan yo'qotmaslik jamiyat a'zolari bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarda jarlikni yuzaga keltiradi. YA'ni, ular o'rtasidagi o'zaro mutanosiblik yo'qoladi. Oxir-oqibatda jamiyat ijtimoiy-siyosiy tizimidan norozilik illatlari shakllana boshlaydi. Xilma-xil ish tashlashlar, norozilik namoyishlari va harakatlarga olib kelishi mumkinki, bunga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Hozirgi paytda Prezidentimiz Islom Karimov olib borayotgan ichki va tashqi siyosatning shu narsaga yo'naltirilayotganligini katta xursandchilik bilan qayd etib,

¹¹ Karimov I.A. O'zbek halqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. -T.: O'zbekiston, 2005. -160 bet.

¹² Karimov I.A. Havfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6. T.: «O'zbekiston», 1998. 181-bet.

uni tag'in takomillashtirish, kuchaytirish lozim. Bu taraqqiyot oxir-oqibatda mamlakatning to'la ijtimoiy-siyosiy mustaqil-ligini ta'minlab shu orqali respublikamiz ijtimoiy rivojlanishini tezlashtirishga, ozod va obod Vatanni, xalqimiz farovon hayotini ta'minlashga olib keladi.

Ijtimoiy-siyosiy barqarorlik demokratik, adolatli jamiyat qurishning eng muhim asoslaridan biri hisoblanadi. Barqarorlik - tinchlik, osoyishtalik va ijodiy mehnat muhiti qat'iy, uzil-kesil hamda mustahkam o'rnatilgan muhim shart. Barqarorlik, tinchlik, totuvlik - bular davlatchiligimizning yangi binosi barpo qilinadigan poydevoridir. Bu bizning ertangi porloq kunimizga olib boradigan yo'ldir.¹³ Barqarorlik, avvalo, har qanday taraqqiyot, bunyodkorlik faoliyatining zaruriy sharti va zamini hisoblanadi.

Ijtimoiy barqarorlik²: 1) jamiyat hayotining osoyishtaligi; 2) ij-timoiy tuzum elementlarining uyg'unligi; 3) jamiyatdagi ijtimoiy birlik-lar (millatlar, turli ijtimoiy qatlamlar va boshqa) vakillarining ham-korligi va hamjihatligi.

Barqarorlik insoniyat tarixida yaratuvchilik, bunyodkorlik faoliyati uchun asos bo'lgan. Qadimgi mashhur faylasuf Konfutsiy: «Farovonlik - maqsad, islohotlar - unga erishish yo'li, barqarorlik esa shart-sharoitdir» deb bejiz aytmagan. Ana shu sababdan ham jamiyat hayotida barqarorlikka intilib kelingan, barqarorlik, boshboshdoqlik bo'lmasligi uchun harakat qilingan.

Ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning tamoyillari quyidagilardir:

1) Ijtimoiy adolatni ta'minlashdir. Ijtimoiy adolat ta'min bo'lishi uchun mamlakatda qonun ustuvorligi, fuqarolarning qonun oldida tengligi va o'z ish faoliyatlarini qonun doirasida amalga oshirishni bildiradi. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, «Qonunning ustuvorligi - huquqiy davlatning asosiy printsipidir». Amir Temurning «Qaerda qonun hukmronlik qilsa, o'sha erda erkinlik bo'ladi» degan o'g'itlari sharqona huquqiy davlat qurishda asos bo'lib xizmat qiladi. «Adolat va haqiqat g'oyasi ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarini qamrab olmog'i darkor.

Adolat va haqiqat g'oyasi qonunchilik faoliyatimizning zamini, bosh yo'nalishi bo'lmog'i shart», - degan edi YUrtboshimiz Islom Karimov. -Mamlakatda adolat tamoyillari amal qilishi, barqarorlik hukm surishida uch sub'ektning, ya'ni davlat, jamiyat va fuqarolarning o'zaro munosabat-laridagi qonuniylik asos bo'ladi. Boshqacha aytganda, ana shu uch sub'ekt - davlat, jamiyat va inson munosabatlari bir-biriga mos kelishiga erishilsagina, ota-bobolarmiz orzu qilgan adolatli jamiyat barpo bo'ladi¹⁴.

2) O'zbekiston polietnik davlat bo'lganligi bois, millatlararo va hamkorlikni ta'minlash bilan bog'liq. O'zbekistonda 130 ga yaqin millat va elatlar yashamoqda. Bugungi kunda respublikamizda 90 dan ortiq milliy-madaniy markaz ishlab turibdi. Bu markazlarning mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli beqiyos.

¹³ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. T.: «O'zbekiston», 1996, 296-bet.

² Nazarov K., Ochildiev A. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar. -T.: «YAngi asr avlodi», 2002, 13-14- betlar.

¹⁴ Nazarov Y., Ro'zinazarov SH. Mustaqillik huquq demakdir. - T.: «O'zbekiston», 1998, 14-b.

3) Respublikada 15 ta diniy konfessiyaga mansub 1900 dan ziyod diniy tashkilot faoliyat ko'rsatmoqda. Mirarab madrasasi, Toshkent Islom universiteti, 14 ta madrasa, 400 ga yaqin diniy musulmon o'quv muassasalari, boshqa dinlarga tegishli 19 o'quv yurti ishlab turibdi. Diniy ta'limot muassasalarida 4200 dan ortiq yoshlar dinlar asoslarini hamda dunyoviy bilimlarni o'rganmoqda¹⁵. Ana shu diniy tashkilotlar o'rtasidagi munosa-batlarni doimiy ravishda yaxshilab borish va bir-birlarini hurmatlash, e'zozlash muhim tamoyillardan biri sanaladi.

4) Jamiyat a'zolarining haq-huquqlarini ta'minlash. Asosiy qonunimiz bo'lgan O'zbekiston Konstitutsiyasida ko'rsatilganidek, to'la-to'kis amalga oshirish uchun ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va huquqiy asoslarini ta'minlab berish lozim. Xalqimizda mustaqillik - bu huquq degan aqida ijtimoiy hayotning barcha sohalari uchun asos sifatida xizmat qiladi. Prezidentimiz Islom Karimov «Mustaqillik so'zining nafaqat o'zini erkin sezish, o'z hayotini qurish, balki o'z hayot-mamotini hal etishda katta huquqqa egalik ham demakdir»¹⁶, degan edi.

5) Prezidentimiz Islom Karimov «O'zbekiston XXI asrga intil-moqda» asarida 2004-2005 yillargacha mamlakatimizni rivojlantirish strategiyasining *oltinchi ustuvor yo'nalishi - jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikni, sarhadlarimiz daxlsizligini, mamlakatimiz hududiy yaxlitligini ta'minlashdan iborat bo'lgan muhim vazifalarni belgilab berdi*¹⁷.

6) Jamiyat a'zolari barcha toifalarining turmush darajasini yuksaltirish sari yo'lidan borish va uning farovonligini oshirish eng muhim tamoyillardan biri hisoblanadi. Bu borada davlat narx-navoni to'la nazorat qilib, jamiyatning turli xil toifa, mutaxassis ishchi-xodimlari maoshlarini mutanosiblikda olib borish ham muhim siyosiy ham amaliy ahamiyatga ega bo'lgan tamoyillardan biridir.

7) Mamlakatda tinchlikni, osoyishtalikni ta'minlash uchun Qurolli Kuchlarni, Mudofaa qudratini harbiy-texnikaviy jihatdan qayta qurollan-tirish va yangilash, milliy armiyamiz salohiyatini oshira borish - ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashning tamoyillaridan biri.

8) SHu munosabat bilan mamlakatimiz chegaralarini qo'riqlash, mustahkamlash maqsadida qudratli rivojlangan davlatlar bilan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ayniqsa harbiy sohalaridagi aloqalarni mustahkamlash yo'li birdan bir to'g'ri yo'l va nihoyatda katta ahamiyat kasb etgan tamoyillardan biridir. Bu borada Prezident Islom Karimov 2001 yil 3-5 may kunlari Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning taklifiga binoan davlat tashrifi bilan Rossiya Federatsiyasida bo'ldi. SHuningdek, 2005 yil 25 mayda mamlakatimiz rahbari Xitoy Xalq Respublikasida bo'ldi. Tashriflar davomida savdo-iqtisodiy munosabatlar, Markaziy Osiyodagi xavfsizlik masalasiga, mintaqada xalqaro terrorchi-likka qarshi birgalikda kurash masalalariga katta e'tibor qaratildi. Mazkur davlatlar o'rtasida imzo chekilgan hujjatlarning qimmatini va ahamiyatini benihoya kattadir.

¹⁵ «Markaziy Osiyo madaniyati» gazetasi. 2000 yil 22-28 sentabr.

¹⁶ Karimov I.A. Havfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6. T.: «O'zbekiston», 1998, 25-bet.

¹⁷ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. T.: «O'zbekiston», 1999, 382-bet.

XULOSA

Xullas, urush qurollari takomillashib boraveradi. Bugungi kunda insoniyat qo'lida mavjud bo'lgan qurol-yarog'lar butun Er sayyorasini yakson qilishga etadi. Hozirgi zamondagi eng katta xavf-insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Prezidentimiz ta'kidlab o'tganidek, endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo'layotgan kurashlar ko'p narsani hal qiladi¹⁸.

Hozirgi davrda g'oyaviy-mafkuraviy kurashlar er yuzini, barcha mintaqa va mamlakatlarni qamrab olmoqda. Bugun bu jarayonlardan biror kishi yoki mamlakat chetda qolmayapti. Ayniqsa, diniy ekstremizm, fundamentalizm yoki prozelitizm va boshqa egotsentrizmga asoslangan axloqsizlik g'oyalarini kishilar ongiga singdirishdan iborat mafkuraviy tajovuzlar mintaqaviy va umumbashariy muammo darajasiga chiqib, unga qarshi kurashning xalqaro institutsional tizimini shakllantirish taqozo qilinmoqda. Bunday sharoitda, jamiyatni tashkil qilgan sinflar, ijtimoiy qatlamlarning manfaat va maqsadlarini uyg'unlashtiruvchi imkoniyatlarni global miqyosda aniqlash zaruriyati vujudga keladi.

Xususan, aloqa vositalarining rivojlanishi, ularning kompyuterlashtirilishi, elektron pochta, internet, kosmik teleradioaloqa tizimlarining texnik-texnologik vositalari kuchayib ketishi bilan axborot almashuv, binobarin g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlari ham tobora kengaymoqda.

G'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning globallashtirishida bir-biridan tubdan farq qiladigan ikki yo'nalish, tendentsiya namoyon bo'lmoqda. Birinchidan, insoniyat tsivilizatsiyasi tarixida erishgan har qanday moddiy va ma'naviy qadriyatlarning umuminsoniy jihatlari tarixiy makon doirasidan chiqib baynalminallashib, universallashtirib bormoqda. Boshqacha aytganda, milliylik va umuminsoniylik tamoyilining integratsiyalashuv jarayoni kechmoqda. Ikkinchidan, millatlar va davlatlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy rivojlanishidagi beqarorlik, ular manfaatlaridagi o'ziga xoslikni mutlaqlashtirish insoniyatga, shu jumladan, o'z millatining kelajagiga xavf tug'diradigan salbiy hodisalarning mafkuralashgan holda globallashtirishga olib kelmoqda. Bu xalqaro terrorizm, ekstremizm, fundamentalizm va narkobiznes hodisalarida namoyon bo'lmoqda. Biron-bir hudud yoki mamlakatda paydo bo'layotgan g'oyalar tez fursatda butun jahonga yoyilmoqda. «Agarki bashariyat tarixini, uning tafakkur rivojini tadrijiy ravishda ko'zdan kechiradigan bo'lsak, hayotda insonni kamolotga, yuksak marralarga chorlaydigan ezgu goya va ta'limotlar bilan yovuz va zararli g'oyalar o'rtasida azaldan kurash mavjud bo'lib kelganini va bu kurash bugun ham davom etayotganini ko'ramiz».¹⁹ Natijada odamzod ma'lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning manfaatlariga xizmat qiladigan, olis-yaqin manbalardan tarqaladigan,

¹⁸ Karang, Karimov I.A. Milliy istiklol mafkurasi – halq e'tikodi va buyuk kelajakka ishonchdir. Ozod va obod vatan, erkin va farovon xayot-pirovard maksadimiz. 8 jild. -T.:Yzbekiston. 2000. –B. 491.

¹⁹ Karimov I. A. YUksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.:Ma'naviyat, 2008. –B.112

turli mafkuraviy markazlarning bosimini doimiy ravishda sezib bormoqda. Muayyan g'oyani ilgari suruvchi, targ'ibot va tashviqotning turli usul, vositalari orqali odamlar ongi, ruhiyatiga ta'sir etuvchi kishilar uyushmasi, tashkilot yoki muassasalari asosida tashkil etilgan mafkuraviy markazlar favoliyati g'oyaviy-mafkuraviy ziddiyatlar jarayonida yanada keskinlashadi. O'zining xarakteri, maqsadiga qarab ma'lum partiya, guruh, kishilar uyushmasi yoki davlat mafkuraviy markaz yadrosini tashkil etishi mumkin. Ularning o'z harakat dasturi, mafkurani targ'ib qilish vositalari, usullariga ega bo'lib, unda muayyan g'oyaga ishontirish, uyushtirish, safarbar etish, ma'naviy-ruhiy rag'batlantirish, g'oyaviy tarbiyalash, mafkuraviy immunitetni saqlash kabilar muhim o'rin tutadi. SHuningdek ular o'z faoliyatlarini yashirin va oshkora yo'l bilan amalga oshiradilar. Jahon tajribasidan shu narsa ma'lumki, ayrim mafkura markazlari, masalan, fashizm o'z maqsadlarini oshkora e'lon qilib, zo'ravonlik yo'li bilan singdirgan. Mafkurani yashirin yo'l bilan targ'ib qilishda vayron qiluvchi g'oya o'zining soxta jozibasi, aldov va makr bilan omma ongini zaharlab, jamiyatda hukmron mavqeni egallab olishiga alohida e'tibor berilgan.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: «O'zbekiston», 2003.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka, tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.6.-T.: «O'zbekiston», 1997. 31-40, 125-135, 149-162-betlar.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.7. -T.: «O'zbekiston», 1998, 132-154-betlar.
4. Karimov I.A. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar deb hisoblashar edi. T.: «O'zbekiston», 2005, 5-33 betlar.
5. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi - xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.8. -T.: «O'zbekiston», 2000. 489-508-betlar.
6. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. T.8. -T.: «O'zbekiston», 2000. 462-467-betlar.
7. Karimov I.A. Hushyorlikka da'vat. T.8. -T.: «O'zbekiston», 2000. 18-31-betlar.
8. Karimov I.A. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch - qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bog'liq. -T.: «O'zbekiston», 2004.
9. Karimov I.A. El-yurtga halol, vijdonan xizmat qilish har bir rahbarning muqaddas burchi. Andijon viloyat xalq deputatlari Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlagan nutq. «Ishonch», 2004 yil 26 may.
10. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l - demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan, hamkorlik yo'li. -T.: «O'zbekiston», 2003. 320-betlar.
11. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch - qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. -T.12. -T.: «O'zbekiston», 2004. - 400 b.
12. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. -T.: «O'zbekiston», 2005. - 160 b.
13. Azizxo'jaev A.A. Mustaqillik: kurashlar, iztiroblar, quvonchlar. -T.: «SHarq», «Akademiya», 2001, 59-96-betlar.
14. Abbosxo'jaev O. Markazning g'irrom o'yinlari yoxud O'zbekistonda qurilgan bo'rilar uyasining yakson qilinishi haqida. «Xalq so'zi», 8 avgust 2003 yil.
15. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. -T.: «YAngi asr avlodi», 2001. 68-78, 100-115-betlar.
16. Jo'raev N. Mafkuraviy immunitet. -T.: «Ma'naviyat», 2000.
17. Saifnazarov I. Ma'naviy barkamollik va siyosiy madaniyat. -T.: «SHarq», 2001. -160 b.
18. Saifnazarov I., Karimov T.: Muxtarov A. Xalqimizning hamjihatligi terrorizmga qarshi kafolatdir. -T.: «Yangi asr avlodi», 2004. - 56 b.
19. Saidolimov S.T. Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta'minlashning ayrim jihatlar. «Xalqaro munosabatlar» jurnali, 2004, №1. 20-22-bet.

20. Bekmurodov A. Sh., Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat: ustuvor masalalar va innovatsiyalar. -T.: TDIU, 2005. - 44 b.
21. Falsafa qomusiy lug'at. T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati. SHarq. 2004
22. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati.- T.:G'ofur G'ulom, 2009.
23. Q.Nazarov "G'oyalar falsafasi" tajribaviy qo'llanma. – T.: Akademiya, 2011.